Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

MILLIY HISOBLAR TIZIMINING ISHLAB CHIQARISH SCHYOTI TAHLILI

MATKARIMOVA INTIZOR ATABAEVNA
“Ma’mun universiteti” Nodavlat ta’lim muassasasi,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi,
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha (PhD) dotsent

Annatatsiya. Mazkur maqolada ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq ishlab chiqarish schyotini hisoblashning asosiy usullari, o‘ziga hos jihatlari milliy hisoblar tizimidan foydalanilgan va tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: milliy hisoblar tizimi, yalpi ichki mahsulot, ishlab chiqarish usuli, harajatlar usuli, daromadlar usuli, yakuniy mahsulot, oraliq mahsulot, qo‘shilgan qiymat, subsidiya, soliq

MHTda takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini: ishlab chiqarish, daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash, uning yakuniy iste’molini iste’mol va jamg‘armalariga ajratilishini ifodalaydi. Bu asosiy iqtisodiy munosabat va tenglikni,tovar ishlab chiqarish va hizmat ko‘rsatish orasidagi, ishlab chiqarish va iste’mol orasidagi, iste’mol va jamg‘arish,birlamchi, ikkilamchi va mavjud daromadlar orasidagi munosabatlarni ko‘rsatib beradi[1].

Ishlab chiqarish schyoti-milliy hisobchilik tizimining birinchi va asosiy schyotidir. Bu schyot ishlab chiqarish jarayonida yuz beradigan operatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish schyoti asosida choraklik va yillik ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni iqtisodiy ko‘rsatkichlari ifodalanadi. Ishlab chiqarish schyoti korxona va tashkilotlarda bevosita ishlab chiqarish jarayonida qatnashgan operatsiyalarni qayd qilish va uni natijalarini tahlil qilish uchun ifodalanadi. Ishlab chiqarish schyoti yordamida korxonalar, tarmoqlar,sektorlar va yaxlit iqtisodiyotning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalab beradi. Ishlab chiqarish schyoti hamma schyotlar qatori resurs hamda resurslardan foydalanish qismlaridan iborat.


Tarmoqlar va sektorlarning ishlab chiqarish schyoti resurs qismida yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar (YaICh)ni asosiy bahodagi qiymatidan iborat. YaICh ko‘rsatkichi hisob davridagi rezidentlar ishlab chiqargan mahsulot va xizmatlarning pul ko‘rinishdagi qiymatidir.

Ishlab chiqarish schyoti [1]

Ishlab chiqarish schyoti – bu schyot moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlari (yalpi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, oraliq iste’mol, qo‘shilgan qiymat)ning hosil bo‘lishini ifodalaydi. Schyotning ko‘rsatkichlari yordamida, yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usuli orqali hisoblash mumkin

Published: 05.06.2026
Cite this article: Matkarimova Intizor Atabaevna (2026). Milliy hisoblar tizimining ishlab chiqarish schyoti tahlili. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/817
© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”



1-rasm.Ishlab chiqarish schyotini tuzilishi

Schyotni foydalanish qismida YaIChni ishlab chiqarish uchun sarflangan oraliq iste’mol (OI) va schyotni balanslashtiruvchi moddasi yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko‘rsatkichlaridan iborat[2].

Milliy hisoblar tizimida ishlab chiqarish 2 xil turga bo‘linadi: bozorga oid ishlab chiqarish; bozorga oid bo‘lmagan (nobozor) ishlab chiqarish.

Bozorga oid ishlab chiqarish –bozorga mo‘ljallab ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulot va xizmatlar. Nobozor xizmatlar-xarajatlari davlat byudjetidan qoplanadigan bepul xizmat ko‘rsatish. Shu boisdan ularni hisoblash usullari ham tubdan farqlanadi.

Bozorga oid mahsulot va xizmatlarga quyidagilar kiradi: bozor bahosida sotilgan mahsulotlar va xizmatlar; korxona o‘z hizmatchilariga ish haqiga berilgan

natural ko‘rinishidagi mahsulotlar va xizmatlar; korxonalar shaxobchalarining o‘zaro bir-biriga beriladigan tovar va xizmatlar qiymati va boshqalar.

Nobozor ishlab chiqarish esa quyidagi belgilari orqali farqlanadi:ishlab chiqaruvchi birlikning asosiy maqsadi foyda olish emas;ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni iste’molchiga yetkazganda olingan daromad shu tovar va xizmatni ishlab chiqarish va yetkazishga ketgan sarf-xarajatlarni to‘liq qoplamasligi; ishlab chiqaruvchi birlikning o‘zning pirovard iste’moli uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar, zaxiraga kelib tushadigan va tugallanmagan ishlab chiqarish xajmi(bozor baholarida baholanadi).

Ma’lumki, YaICh ko‘rsatkichi orqali korxona, iqtisodiyotning tarmoq va sektorlari hamda butun mamlakat iqtisodiyotining qanday rivojlanayotganligi to‘g‘risida to‘la tasavvur hosil qila olmaymiz. Oraliq iste’mol xarajatlari quyidagi elementlardan iborat bo‘ladi (1-rasm). Oraliq iste’molga quyidagi xarajatlar kirmaydi: kapital ta’mirlash (imorat, mashina, yerlarni yaxshilash) xarajatlari; ishchilarga ish haqi uchun natural holda berilgan mahsulot va xizmatlar qiymati; yerdan foydalanish ijara to‘lovlari; qimmatbaho qog‘ozlar sotib olish qiymati; ijtimoiy-madaniy xarajatlari; davlat tomonidan zahiraga olingan mahsulotlar.

Oraliq iste’molga, moliyaviy xizmatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlar bilan birga bilvosita hisoblanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari ham kiritiladi. Oraliq iste’mol, tovarlar ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan vaqtda amalda bo‘lgan sotib olish narxlarida baholanadi. Asosiy narxlarda iqtisodiy faoliyat turlarining yalpi qo‘shilgan qiymati asosiy narxlardagi ishlab chiqarish va sotib olish narxlaridagi oraliq iste’mol o‘rtasidagi farq orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$GVA_i = \mathrm{O_i} - \mathrm{IS_i} \qquad (1)$$

bu yerda,

$\mathrm{GVA_i}$– i iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha asosiy narxlarda yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi;

$\mathrm{O_i}$– i iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha asosiy narxlarda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi;

IS_i – i iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha sotib olish narxlarida oraliq iste’mol hajmi.

YaIMni doimiy narxlarda hisoblash, ma’lum bir davr mobaynidagi iqtisodiy o‘sish sur’atlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Doimiy narxlardagi YaIM turli usullar va ma’lumotlar manbalaridan foydalanib, doimiy narxlarda alohida hisoblangan iqtisodiy faoliyat turlarining yalpi qo‘shilgan qiymatlari va mahsulotlar uchun sof soliqlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

YaIMning tarkibiy qismlarini doimiy narxlarda hisoblash ikki asosiy usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi:

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

Oraliq istemol-tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun muayyan sarf xarajat (mexnat, tovarlar, xizmatlar, asosiy fondlar, amartizatsiya)lar qilish zarur. Bulardan ishlab chiqarish xarajatlar sifatida ishlatilgan (istemol qilingan) tovar va xizmatlar qiymati oraliq istemol (OI) deyiladi

Materiallar xarajatlari	Nomoddiy xizmatlar	Safar xarajatlari	Boshqa xarajatlar
-Xamashyo elementlari Yoqilgining barcha turlari. -Energiyaning barcha turlari. -Yarimfabrikatlar. -Ishlab chiqarish jarayonida boshqa korxonalarning ko‘rsatgan xizmatlari. -Mahsulotlarni tashish transport xizmati. -Mexmonxona, restoran, kafelar sotib olgan oziq ovqat maxsulotlari, tabak va ichimlik maxsulotlari. -Mudofaa vazirligini qurollash uchun qilingan xarajatlar, armiyani kiyintirish va oqatlantirish xarajatlari va x.k.	Maxsulotni sifatini nazorat qilib turish xaqi. -Ilmiy va tajriba mexnat xaqi. -Imorat, mashina va asbob uskunalarni ijara xaqi. -Malakali ishchilarni tayorlash o‘quv yurtlari uchun to‘lovlar. Kredit uchun to‘langan xaqi. -Komunal xizmatlar xaqi. -Reklama uchun to‘langan xaq. Kredit xizmatlar xaqi. -O‘t uchiruvchilar va qoravul xaqi. -Tovarlarni litsenziyalash va sertifikatsiyalash uchun to‘lovlar	-Mexmonxonada yashaganligi uchun to‘lov xaqi. -Yul transport uchun to‘lov xaqi (kundalik ovqatlanish uchun to‘lov xaqi, safar xarajatiga kirmaydi)	-xizmatchilar ning mexnat sharoitini yaxshilash (yuvinish xonasi, tibbiy yordam, madaniyat uylari, ushlab turish xarajatlari) xarajatlar. -Kafolat va ta’mirlash xarajatlari. -xizmatchilar ga ajratilgan transport xizmatlari uchun to‘lov xaqi (agar qorxona jamoat transportidan uzoqda joylashgan bo‘lsa). -Ishchilarni ishga jalb qilish xizmatlari uchun to‘lov xaqi. -Maxsulotlarni sotish xarajatlari uchun to‘lov xaqi. Boshka xarajatlar.

STATISTIKA KAFEDRASI

2-rasm.Oraliq iste’mol xarajatlari tarkibi [1].

YaIMning tarkibiy qismlarini doimiy narxlarda hisoblash ikki asosiy usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi:

a) joriy narxlardagi hisobot davri ma’lumotlarini mos narxlar indeksi bo‘yicha deflyatsiya qilish orqali.

$$O_{const.} = \frac{O_t}{I_p} \times 100, \qquad (2)$$

bu yerda,

$O_{const.}$ – iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha doimiy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

O_t – iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha t davr uchun joriy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

I_p – iqtisodiy faoliyat turiga mos keluvchi p narx indeksi.

Ushbu usulda quyidagi narx indekslaridan foydalaniladi: iste’mol narxlari indeksi; sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar narxlari indeksi; tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksi; dehqon bozorlaridagi narxlar indeksi; asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari bo‘yicha narxlar indeksi; o‘rtacha ish haqining o‘zgarishi indeksi va boshqalar.

b) joriy narxlardagi o‘tgan yilning mos davri ma’lumotlarini fizik hajm indekslari yoki ushbu iqtisodiy faoliyat turining rivojlanish sur’atlarini mantiqan to‘g‘ri ifodalovchi natural indikatorlar yordamida ekstrapolyatsiya qilish orqali:

$$O_{comp} = \frac{O_{t-1} \times I_q}{100}, \qquad (3)$$

bu yerda,

O_{comp}–iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha doimiy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

O_{t-1}–iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha t-1 davr uchun (o‘tgan yilning) joriy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

I_q–iqtisodiy faoliyat turiga mos keluvchi q fizik hajm indeksi.

Ushbu usulda quyidagi indekslardan foydalaniladi: natura shaklidagi mahsulot ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi; xizmatlar hajmi o‘zgarishini ifodalovchi mos natural ko‘rsatkichlarning fizik hajm indeksi; yollanma ishchilar sonining o‘zgarish indeksi va boshqalar.

Ayrim hollarda ko‘rsatkichlarni doimiy narxlarda hisoblashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta baholash usuli ham qo‘llaniladi, bu usul hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini o‘tgan yilning mos davri narxlariga ko‘paytirish orqali amalga oshiriladi. Bu usul asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini baholash uchun ishlatiladi, chunki unda cheklangan sonli bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

YaIM tarkibiy qismlarini hisoblashda asosan deflyatsiya usulidan foydalaniladi, mos narxlar indeksi mavjud bo‘lmagan hollarda ekstrapolyatsiya qilish usuli qo‘llaniladi.

YaIMni hisoblashda soliqlar ham muhim ahamiyatga ega hisoblanganligi sababli soliqlarni hisobga olinish haqida ma’lumot keltirib o‘tamiz. Mahsulotlar uchun soliqlarga: qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va eksport-import operatsiyalariga soliqlar, shu jumladan, bojxona to‘lovlari, davlatning eksport-import operatsiyalaridan olgan daromadlari hamda Davlat byudjetiga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga o‘tkazib beriladigan shunga o‘xshash to‘lovlar kiradi.

MHTda hamma soliqlar joriy va kapital soliqlarga bo‘linadi. Joriy soliqlar o‘z navbatida ikki guruhga bo‘linadi: ishlab chiqarish va import uchun soliq; daromad va boylik uchun soliq.

Ishlab chiqarish va importga soliq- bu institutsional birliklar tomonidan davlat boyliklardan majburiy qonun va normativ hujjatlar asosida to‘lanadigan

to‘lovlarga soliqlar deyiladi. Bu soliqlar davlat boshqaruv idoralari sektorini birlamchi daromadi deyiladi. Ishlab chiqarish va import uchun soliq, mahsulot uchun soliq va boshqa ishlab chiqarish uchun soliq kabi turlari mavjud.

Mahsulot uchun soliq -ishlab chiqaruvchi birliklarning tovar va xizmatlarning boshqa institutsional birliklarga sotish vaqtida, mahsulot va xizmatlarni miqdor birliklariga proporsional miqdorda solinadigan soliqlar.

Subsidiyalar -davlat byudjetidan institutsional birliklarga ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot va xizmatlarni sotish va boshqa faoliyatlaridagi xarajatlarni qisman qoplash uchun to‘lanadigan va qaytarib olinmaydigan to‘lovlardan iborat.

Umumlashtirib aytganda, ishlab chiqarish schyotining ko‘rsatkichlar tahlili quyidagi yo‘nalishlardan iborat:

ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni yalpi ishlab chiqarish va YaIMdan ulushini aniqlash orqali iqtisodiy faoliyatdagi rivojlantirish darajasini aniqlash mumkin;

yalpi qo‘shilgan qiymat(YaQQ), yalpi ishlab chiqarishdagi ulushini, iqtisodiy faoliyat natijasi samaradorligini aniqlash mumkin. Agarda YaQQ ni yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi oshgan bo‘lsa, bu oraliq iste’mol xarajatlari elementlaridan juda ham samaradorlik bilan foydalanganlikni bildiradi;

soliqlarning YaQQ ulushiga qarab,soliq bojini aniqlashga imkoniyat beradi hamda bir birlik mahsulotga soliq ko‘payganini yoki kamayganini aniqlash mumkin.

yalpi qo‘shilgan qiymat(YaQQ)ni tarkibiy siljish va ayrim ishlab chiqarish omillari indeksini YaQQni dinamikasiga ta’sirini o‘rganish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qorabaev A. R., G‘oyibnazarov B. K., Rashitova N. X. Milliy hisoblar tizimi. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2015. .-289 bet.
2. Matkarimova I.A.O‘zbekiston Respublikasining milliy hisoblar tizimida ishlab chiqarish faoliyati ko‘rsatkichlari. Iqtisodiyot va ta’lim. 2013.№5
3. Гойипназаров Б. К., Маткаримова И. А. Основные изменения в системе националных счетов 2008 года и их влияние на макроэкономические показатели //Молодой ученый. – 2015. – №. 17. – С. 441-444.
4. Matkarimova, I. A., & Sharipova, Z. A. (2020). MHT-2008 asosida YaIMni hisoblashda inobatga olinishi zarur bo‘ladigan o‘zgarishlar. Internauka, (4-3), 91-93.
5. Маткаримова, И. А. (2017). Основные изменения в системе национальных счетов 2008 года и их влияние на макроэкономические показатели. Theoretical & applied science, (1), 116-119.
6. Matkarimova, I. A., & Goyipnazarov, B. K. (2016). Analyzing structural

changes in standard of NAS-2008 in globalization period. Молодой ученый, (3), 562-564.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti